MOBIL TELEFONLARNING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Turabova Ibodat Ikromjon qizi
SamDCHTI sharq tillari fakulteti
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi
ikromjonova08@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mobil telefonlarning kundalik hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Mobil telefonlarning aloqa qilish, ma’lumot almashish, ta’lim olish va internetdan foydalanishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mobil telefonlarning foydali jihatlari bilan bir qatorda, ulardan ortiqcha foydalanishning salbiy ta’sirlari ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: mobil telefon, aloqa, internet, axborot texnologiyalari, zamonaviy hayot, ta’lim, ijtimoiy tarmoqlar.

Telefonlar – bu qudratli asbob bo‘lib, uning foydasi yoki zarari undan qanday foydalanishimizga bog‘liq.Bugungi kunga kelib butun dunyo uyali aloqa abonentlarining soni 1,9 milliardni tashkil qiladi. Yurtimizda deyarli har ikki kishining birida uyali telefon mavjud. U ham xizmatkor, ham zolim bo‘lishi mumkin. Nima so‘rasangiz, qanday munosabatda bulsangiz, shunday javob olasiz.

Diqqat. Ushbu so‘z jamiyatdagi ba’zi insonlarga begona, negaki hayotidagi bulayotgan voqea hodisalarga beparvo qarashadi. Ularda insonlar bilan munosabatga kirish tushunchasi ancha sekin va orqada rivojlanadi. Bunday ahvolning birlamchi sababi, insonlarning “birikmagan a’zosi” ya’ni telifondir. Jamiyat shu darajaga yetdiki, yosh avlodni biror narsa bilan 7 daqiqadan ortiq e’tiborini tortib bulmay qoldi. Smartfonlardan keng foydalanadigan birlamchi Zavlod 1990-yildan boshlab boshlang’ich nuqtasi paydo bo‘ldi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, dunyoda har 20 ta insondan bittasi ushbu mobil aloqa nurlanishining qurboniga aylanmoqda. Qaramlik jiddiy psixologik muammoga aylandi, buning oqibati samarali vaqt yuqotishga olib keldi. Bu kabi ma’lumotlarni mobil telifonlarning salbiy oqibatlariga kiritsak, ijobiy oqibatlarini quyida ko‘ramiz.

Mobil telifon orqali uzoq masofalarning yuq bulishi, favqulodda vaziyatlar, bank va moliya ishlarida, raqamli kutubxonalar, onlayn do‘konlar, mobil ilovalar shuningdek, masofaviy ishlar shu kabi sohalarda qullayligini aytish mumkin.

Hozirgi kunda keng qullaniladigan sun’iy intellektlar tibbiyot yunalishida ancha qulay va manfaatli bo‘lmoqdamoqda. Kelajakda smartfonlarning o‘rni shunchaki qurilmalar sifatida emas, balki sizning shaxsiy, sog'liq, ish va

ko'pgina kundalik faoliyatingizni birlashtiruvchi aqlli va mustahkam markaz sifatida mustahkamlanadi. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat texnologiyaga, balki uning inson hayotidagi o‘rni haqidagi tushunchaga tegishli bo‘ladi.

Telefon bizga qaram bo‘lgan emas, balki biz unga qaram bo‘lgan hayotda umr kechirmaslik kerak. Uni ongli va o‘lchovli ishlatish, haqiqiy hayot va raqamlar o‘rtasida sog‘lom muvozanatni saqlash – bu zamonaviy insonning eng muhim ko‘nikmalaridan biriga aylanmoqda. Telefon hayotimizni osonlashtirish va boyitish uchun xizmat qilishi kerak, uni boshqarish va cheklay olishimiz zarur. Yuqorida salbiy oqibatlaridan boshlashimni ham o‘z sababi bor negaki, yomonni ko‘rib yaxshini qadriga yetilgani kabi salbiy oqibatlarini ko‘rib o‘zimizga qaror qabul qilamiz, albatta, bu yaxshilikka.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. G‘ulomov S.S. va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. — Toshkent.
3. Castells, M. The Mobile Communication Society. — 2007.
4. Ling, R. The Mobile Connection: The Cell Phone’s Impact on Society. — Morgan Kaufmann, 2004.
5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli texnologiyalar va telekommunikatsiya sohasiga oid materiallar. — Rasmiy sayt: https://digital.uz